

Toshkent - Istanbul yoʻnalishi boʻylab harakatlangan HY-273 reysi haqida rasmiy xabar

2022 25 May

Bugun, 25-may kuni HY-273 Toshkent – Istanbul muntazam aviaqatnovini amalga oshiruvchi havo kemasi jadvalga muvofiq Toshkentdan parvozni boshlagan. Texnik sabablarga koʻra havo kemasi Toshkent vaqti bilan soat 21:10 da Trabzon aeroportiga majburiy qoʻnishni amalga oshirgan.

Hozirda havo kemasi bortidagi 240 yoʻlovchi xayotiga hech qanday xavf tugʻdirmayapti. Yaqin vaqt ichida barcha yoʻlovchilar Trabzon shahrida joylashgan mehmonxonaga joylashtirilib, tez fursatlarda belgilangan manzilga – Istanbul shahriga yetkaziladilar.

Oʻz navbatida, ushbu sabab tufayli HY274/25MAY22 Istanbul – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviaqatnovi vaqti kechiktiriladi (Istanbul mahalliy vaqti bilan jadvalga muvofiq 21:45 da rejalashtirilgan parvoz). Ayni vaqtda Istanbuldan Toshkentga yoʻlovchilarni olib ketish uchun rezerv havo kemasini yuborish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Keltirilgan noqulayliklar uchun yoʻlovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr soʻraymiz, shuningdek, yuzaga kelgan vaziyatni toʻgʻri tushunishingizni soʻrab qolamiz.